



**O'ZGA GAPLI KONSTRUKSIYALAR VA ULARNING MATNDAGI
SEMANTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI**

Avazberdiyeva Bahora Alijon qizi

*Navoiy davlat universiteti O'zbek tili
va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Badiiy asarlardan olingan parchalarda milliy mentalitet, o'zbekona urf-odatlar, xalqning o'ziga xos dunyoqarashini aks ettiruvchi aralash va chog'ishtirma o'zga gapli qurilmalar, shuningdek, matn tarkibidagi tematik va bilateral aloqa orqali bog'langan gaplar ham tahlil etilgan. Maqolada o'zbek xalqining atoqli adiblari A.Qahhor, Oybek, E. A'zam asarlaridan, Z. Saidnosirova xotiralaridan foydalanildi.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, milliy mentalitet, madaniy tushunchalar, etnomarker.

Kirish. Zamonaviy jahon va o'zbek tilshunosligida lisoniy birliklarni nafaqat ichki grammatik qonuniyatlar doirasida o'rganish bosqichidan inson, jamiyat hamda madaniyat mushtarakligiga yo'naltirilgan antroposentrik o'rganish va tadqiqotlar qilishga o'tildi. Bu borada ayniqsa matn tilshunosligi va lingvokulturologiyaning ahamiyati oshmoqda. Til butun boshli millatning madaniy kodi hisoblanadi, uning yordamida xalqning hayotni, dunyoni kognitiv anglash darajasi va tarixidan xabardor bo'lishimiz mumkin. Chunki badiiy matn xalq ijtimoiy-psixologik qiyofasining ko'zgusi sanaladi. Matn tarkibida muallif bayoni va qahramon nutqi yordamida yuzaga keladigan bilateral va tematik aloqa turlari shunchaki grammatik qoliplar emas, ularda o'zbek xalqining hududiy jozibasi va sotsiomadaniy munosabatlari yotadi. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi o'zbek tilining sintaktik qurilmalarining madaniy tabiatini, ularning ostki qatlamida yashiringan milliy mentalitet jihatidan o'rganish zarur hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda materiallarning xolisligi va tizimlilikini aniqlash maqsadida bir qator lingvistik metodlardan foydalanildi. Sintaktik birliklar tarkibidagi milliy va maishiy urf-odat, tushunchalarni o'zbekona hayot tarzi hamda xalq dunyoqarashidan kelib chiqqan holda sharhlash maqsadida lingvokulturologik metoddan foydalanildi. Matn tarkibidagi ma'noviy markazlarni shunchaki leksik birlik sifatida emas, madaniy konsept sifatida o'rganish uchun xizmat qildi. Masalan, tuya va uning juni haqidagi tushunchalar Yevropa va sovuq o'lkalardagi xalqlarning madaniy hayotida ahamiyat kasb etmaganidek. Struktur-semantik tahlil orqali esa muallif gapi



hamda ko'chirma gap tarkibidagi lisoniy aloqalarni va gapdagi hukmni aniqlashda foydalanildi. Aralash gaplarni an'anaviy klassik ko'chirma yoki bayon gap andozalariga keltirish orqali ularning ma'no o'zgarishlarini aniqlash maqsadida sintaktik shaklni o'zgartirish, ya'ni transformatsiya qilish metodidan foydalanildi. Tadqiqotni o'tkazish uchun ulug' so'z san'atkorlari Abdulla Qahhor, Oybek kabi yozuvchilarning asarlaridan saralab olingan 9 ta turli asarlardan olingan matnlardan foydalanildi.

Aralash o'zga gapli qurilmalarda muallif nutqi va qahramon fikri qorishib ketish holatlari ham uchraydi. Bu holat bevosita qahramonning ruhiy holatini o'quvchiga yetkazishga va nutqiy dinamikani oshirishga yordam beradi. Masalan: *"Qizimmi?!" uyqu qochdi, xotinimni uyg'otib, "Turib qarasang-chi" dedim* (E.A'zam). Mazkur misol odatiy ko'chirma gap qoliplariga bo'ysunmaydi. *"Qizimmi"* deya ta'kidlangan qismida qahramonning ichki qo'rquvi so'zlarga ko'chirilgan. *"Uyqu qochdi, xotinimni uyg'otib qismlari esa voqelik foni bo'lib xizmat qilgan. "Turib qarasang-chi" qismi esa asardagi real tinglovchi xotiniga yo'naltirilgan.* Lingvokulturologik jihatdan esa mazkur gapda o'zbek oilasining turmush-tarzi va an'analari ulkan mahorat bilan singdirilgan. Chunki o'zbek oilalarida qiz farzand va ota o'rtasida ma'lum masofa bo'lib, buni biz qahramonning qizidan xabar olish uchun ayolini jo'natganidan ham bilishimiz mumkin. Bitta gap orqali esa ruhiy iztirob va andisha tuyg'usi muvaffaqiyatli aks ettirilgan.

Ajratilgan bo'laklar esa gapda matndagi ma'lumotni o'quvchiga yanada aniqlashtirish, unga yanada ko'proq mantiqiy urg'u berishda yordam beradi. Zarifa Saidnosirovaning otasi Saidnosirboy Mirjalilov haqida xotiralarida quyidagi gap uchraydi: *"Otam – men uni bilgan chog'larimda – omoch surmagan, ketmon chopmagan, bo'lsa deb o'ylayman"* [5]. Mazkur gapda ota asosiy g'oya yo'naltirilgan gapning subyekti hisoblanib, *"men uni bilgan chog'larimda"* qismi muallifning ichki fikrini ko'rsatgan. Mazkur gap orqali bizlar bir necha axborotni, jumladan, muallifning otasi ijtimoiy statusini, uning qora mehnat, mardikorlikdan uzoqdaligini ta'kidlagan. Chunki gap tarkibidagi *omoch surmoq, ketmon chopmoq* birliklari o'zbek agrar madaniyatini ko'rsatib beruvchi birliklar sanaladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, muallifning otasi ziyoli va mulkdor inson.

Chog'ishtirma o'zga gapli qurilmalarda qahramon nutqiy akti bilan uning ichki mantiqiy yoki tashqi harakati qiyoslab, chog'ishtirilganda yuzaga keladi. Abdulla Qahhorning *"Sinchalak"* qissasida ham o'zbek xalqining lingvomadaniyatidan yanada boxabar bo'lish imkoniyatini beradi. Masalan: *"Hamidulla bunga ham: "To'g'ri, haqiqatda to'g'ri", - deb javob berdi-yu, Saida ketayotganida uning oshgacha, osh mahalida, oshdan keyin gapirgan*



hamma gaplarini bir og'iz so'z bilan bir pul qildi-qo'ydi". Ushbu mikromatnning markazida o'zbek madaniyatining eng yetakchi konsept va elementlaridan biri sanalgan osh, ya'ni palov haqida gap ketyapti. *Osh* nafaqat taom turi, balki o'zbek xalqining ko'plab urf-odatlarida markaziy o'rin egallaydi. Mazkur gapda ko'rishimiz mumkinki, Saida suhbatdoshining gaplarini *osh* mahali inkor qilayotgani yo'q, davra tugagach o'zining fikrini bildirib, rad etayotgani ko'rsatib o'tilmoqda.

O'zbek onasining tabiati haqida ham bir necha asarlarda ayrim jumlar uchraydiki, ularning umumiy mazmunidan kelib chiqqan holda o'zbek onasining portretini xayolan tiklay olamiz: *"Oyim issiq va yengil bo'ladi, deb har gap Oybekning paltosi uchun tuya yungi topib, titib, savab beradi: "Issiq yurgani yaxshi"*. Muallif onaning maishiy harakatlarini tuya yungi topish, titish, savashni parallel tarzda chog'ishtiradi. O'zbek xalqi, balki dunyo xalqlarida ham tuya juni issiq va shifobaxsh hisoblanib, qadrlanadi. O'z kuyoviga bo'lgan mehrini Zarifa Saidnosirovaning onasi yuqoridagi ishlari orqali ko'rsatgan, bu esa o'zbekona onalik mentalitetining amaldagi namunasi sanaladi.

Dunyo adabiyoti namunalaridan juda yaxshi xabardor bo'lgan Abdulla Qahhor haqida Said Ahmad o'zining *"Yo'qotganlarim va topganlarim"* xotira kitobida quyidagi satrlarni keltirib o'tadi: *"A.Qahhor Tolstoy asarlarini qaziga o'xshatib: "O'qiganing sari mazasi chiqadi", - deya yozadi"*. O'zbek gastronomik madaniyatida qazi to'kinlik ramzi sifatida qaralib, oliy mehmondorchilik, asosan boylar dastruxonining ko'rki sifatida qaralgan. Ot go'shtidan tayyorlanagan qazining yana bir o'ziga xos tabiati uning chaynalgani sari mazasi chiqishi va ochilishidadir. So'z zargari sanalgan Abdulla Qahhor yuksak intellektual jarayonni – Lev Tolstoy asarlarini mutolaa qilishni va uni anglash darajasini mana shu milliy madaniy simvol bilan bog'laydi. Bu holat o'zbek madaniyatida borliqdagi milliy taom va ma'naviy tafakkurning qanchalik darajada go'zal qiyoslash mumkinligining isbotidir.

"Lutfiy xuddi o'z tengi va ehtiromga sazovor bir zotga e'tiqodini uqtirgan gapi jo'shib gapirardi: "Qasam Tangrigakim, agar imkon bo'lsa edi, o'zimning forsiy va turkiyda aytgan o'n ikki ming baytimni shu g'azalga almashar edim, ham ayni zamonda o'zimni ulug' maqsadga erishgan deb hisoblar edim!" Oybekning *"Navoiy"* romanidan olingan ushbu parchada muallif nutqidagi *xuddi o'z tengi va ehtiromga sazovor bir zotga e'tiqodini uqtirgan* kabi qismlari Lutfiyning ichki ruhiy holat andozasini chizib beradi. Mazkur gapda mubolag'ali ko'chirma gap chog'ishtiriladi. Sharq va o'zbek mentalitetida ustoz-shogirdlik an'analari yuqori cho'qqiga chiqarilgan, asardan berilgan parchadan ko'rishimiz mumkinki, Lutfiyning butun umrlik ijodiyotini yosh Navoiyning bir necha misralariga almashishga tayyorligi, cheksiz ehtiromning



ramzi sanalib, sotsiomadaniy jihat eng yuksak cho‘qqiga olib chiqilgan.

Mavzuiy zanjirlashish hodisasini ham Erkin A‘zamning mashhur “Anoyining jaydari olmasi” hikoyasida ko‘rishimiz mumkin: *“Ramazonning hangomalarini tinglarkansiz, Boysun oralab yurgandek ajabtovur odamlar to‘dasiga kirib qolgandek bo‘lasiz”*. Lingvokulturologik nuqtayi nazardan ushbu parchada hududiy koloritni ko‘rishimiz mumkin. Boysun oddiy hudud nomi emas, balki qadimiy urf-odatlar, dostonchilik, baxshichlik yurtidir. Bunda qahramon kimligi, uning nutqi o‘zbek millatiga mansublik, ochiqko‘ngillik ko‘rsatib berilgan.

Bilateral aloqa yordamida ham paydo bo‘lgan gaplar ham mavjud. Bunday gaplar 2 tomonlama aloqaga asoslanadi: *“Uning xato, nuqsonlarini baralla fosh etadi. Shuning uchun Navoiy dilida bir nima bor, degan fikrga kelgan edi”*. Agar ikkinchi gap olib tashlansa, umumiy mantiqiylik yo‘qoladi, birinchi gap olib tashlansa, gap maqsadi noma‘lumligicha qoladi. Lingvokulturologik jihatdan o‘zbek muloqotida kishining aybini ochiqcha aytmasdan uni qog‘ozga o‘rab aytish, shuningdek andisha ham bor.

Xulosa. O‘zbek tili badiiy diskursidagi murakkab sintaktik qurilmalar, matniy zanjirlar quruq texnik andozalar emas, balki millat tafakkuri, uning dunyoqarashi va xarakterini o‘zida aks ettiruvchi kognitiv tizimdir. Olingan natijalar va qilingan ishlarga qarab “Matn tilshunosligi”, “Lingvokulturologiya” fanlarini yangi materiallar bilan boyitishga, shuningdek XXI asr talabi sanalmish kompyuter lingvistikasida o‘zbekcha baadiiy matnlarni avtomatik tahlil qiluvchi dasturlar, sun‘iy intellect modellarini rivojlantirishda, umuman bugun axborotlashgan davr tizimi milliy mentalitetimizga moslashtirishda va algoritmlarni yaratishda fundamental va amaliy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. A.G‘ulomov, M.Asqarova Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Sintaksis. – Toshkent: O‘qituvchi, 1987.
2. A. Mamajonov. Matn sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1989.
3. N. Mahmudov. Tilning kulturologik aspekti // O‘zbek tili va adabiyoti.
4. M. Yo‘ldoshev. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.
5. Z. Saidnosirova. Oybegim mening: Xotiralar. – Toshkent: Sharq, 2005.